



Verbalization of the concept of “rain” in English phraseology and paremiology

Nodira ASHUROVA¹

University of Economics and Pedagogy

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

concept “rain”,
concept “weather”,
cognitive linguistics,
linguoculturology,
linguistic worldview,
phraseology,
paremiology,
idioms.

ABSTRACT

This article is considered within the framework of linguocognitive and linguocultural approaches, focusing on the concept of “rain” as an important component of the “weather” conceptosphere in the English language. The study installed phraseological and paremiological units, as well as data from associative and specialized dictionaries, through which the semantic structure of the concept, its cognitive models, and cultural-linguistic connotations were found. The results show that the numerous units representing the concept of “rain” are characterized mainly by negative and cautionary meanings. At the same time, in certain expressions, rain is found as a symbol of fertility, purification, and a natural part of the cyclical processes of nature. The overall scholarly significance of the conclusions was impact evaluated, confirming their value for linguoculturology, translation theory, and foreign language teaching practice.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss8/S-pp228-233>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

“Yo‘mg‘ir” (“rain”) konseptining ingliz tilidagi frazeologiya va paremiologiyada verbalizatsiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar:

“yomg‘ir” konsepti,
“ob-havo” konsepti,
kognitiv lingvistika,
lingvokulturologiya,
til manzarasi,

Mazkur maqolada ingliz tilidagi “weather” (ob-havo) konseptosferasining muhim tarkibiy qismi - “rain” (yomg‘ir) konsepti lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda frazeologik va paremiologik birliklar, shuningdek assotsiativ va maxsus lug‘atlar materiallari o‘rganilib, konseptning semantik tarkibi, kognitiv modellari va

¹ Associate Professor, University of Economics and Pedagogy.

E-mail: madinaakmal2001@mail.ru.

frazeologiya,
paremiologiya,
idiomalar.

madaniy-lingvistik konnotatsiyalari aniqlangan. Natijalar “rain” konseptini ifodalovchi birliklarning ko‘pligi va ularning asosan salbiy hamda ogohlantiruvchi ma’nolarda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim birliklarda yomg‘ir unumdorlik, poklanish va tabiat tsiklining tabiiy qismi sifatida ham ko‘rib chilgan. Olingan xulosalar lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi va chet tillarni o‘qitish amaliyoti uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Вербализация концепта “дождь” в английской фразеологии и паремиологии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

концепт «дождь»,
концепт «погода»,
когнитивная лингвистика,
лингвокультурология,
языковая картина мира,
фразеология,
паремиология,
идиомы.

В данной статье рассмотрен концепт “rain” (дождь) как важный компонент концептосферы “weather” (погода) в английском языке с позиций лингвокогнитивного и лингвокультурологического подходов. В исследовании проанализированы фразеологические и паремиологические единицы, а также материалы ассоциативных и специальных словарей, на основе чего установлена семантическая структура концепта, выявлены его когнитивные модели и охарактеризованы культурно-лингвистические коннотации. Обнаружено, что многочисленные единицы, репрезентирующие концепт “rain”, преимущественно используются в отрицательных и предупреждающих значениях. Вместе с тем, выяснено, что в ряде выражений дождь оценивается как символ плодородия, очищения и естественной части природного цикла. Сделанные выводы обладают научной значимостью, поскольку оценено влияние полученных результатов на развитие лингвокультурологии, теории перевода и практики преподавания иностранных языков.

KIRISH

Hozirgi davrda ob-havo hodisalari, xususan, “yomg‘ir” konsepti tilshunoslik va lingvokulturologiya sohasida tobora ko‘proq tadqiqotchilarning diqqat markaziga aylanmoqda. Ushbu konseptni o‘rganish dolzarb bo‘lib, u nafaqat ingliz, balki o‘zbek tilidagi til manzarasining ham ajralmas elementi sanaladi. Chunki ob-havo hodisalari, jumladan yomg‘ir, har ikki xalqning kundalik hayoti, dunyoqarashi va madaniy tajribasida muhim o‘rin tutadi hamda muloqot jarayonida asosiy mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarda meteorologik hodisalarning turli jihatlarini tahlil qilingan. Jumladan, ingliz lingvokulturasida ob-havo sir-sinoatlarining til orqali ifodalanishi, xususan, *weather magic* fenomeni alohida tadqiq etilgan [1]. Shuningdek, metonimik komponentlarga ega frazeologik birliklarning strukturaviy modellari ham ko‘plab izlanishlarga asos bo‘lgan [2]. O‘zbek tilida esa dialektal matnlarda “yomg‘ir” konseptining

obrazli vositalar orqali obyektivlashuvi va u bilan bog'liq leksik birliklarning semantik xususiyatlari keng yoritilgan [3, 4].

Shunga qaramay, mavjud izlanishlar ko'proq meteorologik hodisalarning leksik-semantik va dialektal xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ingliz tilida frazeologiya va paremiyologiya darajasida "rain" konseptining lingvokulturologik tahlili yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Shu bois, mazkur maqolaning maqsadi — ingliz tilidagi frazeologik va paremiyologik birliklar doirasida "rain" ("yomg'ir") konseptining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash va uning xalqning dunyoqarashi hamda madaniy tajribasida qanday ifodalanganini ko'rsatishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ingliz lingvokulturasida "rain" konsepti masalasiga oid tadqiqotlar mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishda rus olimlaridan Popova T.A. tomonidan konseptning kognitiv xususiyatlari, xususan leksik-semantik tahlil asosida o'rganilganligi alohida ta'kidlanadi [5]. Shuningdek, konseptual ma'lumotlarning tilda ifodalanish mexanizmlari Kajanova Z.N. va Ershova N.B. tadqiqotlarida yoritilib, frazeologik birliklar dunyoni konseptualizatsiya qilish va kategoriyalashtirishning muhim vositasi sifatida qaraladi [6].

Tilning leksik qatlami madaniy yuklamani o'z zimmasiga oluvchi asosiy qatlam sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, aynan shu qatlam asosida til manzarasi shakllanib, til egalarining borliqni qabul qilish shaklini belgilaydi. Bu jarayon, ayniqsa, barqaror birliklarda - frazeologizmlar va paremiyalarda yaqqol namoyon bo'ladi. S.G. Ter-Minasova bunday qatlamni xalq donishmandligi va madaniy tajribasini jamlagan til sathi sifatida talqin etadi [7]. Shunga o'xshash yondashuv D.B. Gudkov va M.A. Kosycheva ishlarida ham kuzatiladi, ular frazeologik birliklarning madaniyat va qadriyatlarni aks ettirishdagi rolini ta'kidlab o'tadilar [8, 9].

Frazeologik birliklarning muhim xususiyatlaridan biri - idiomatiklikdir. O'zbek tilshunosligida bu tushuncha barqaror so'z birikmasining umumiy ma'nosi uning komponentlari yig'indisidan kelib chiqmasligi bilan izohlanadi [10, 11, 12]. Xuddi shu nuqtayi nazar chet ellik olimlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanib, idiomalar "murakkab ifodalar bo'lib, ularning ma'nosi tarkibiy qismlarining ma'nolaridan kelib chiqmaydi" tarzida talqin qilinadi [13].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarda "rain" konsepti frazeologiya va paremiyologiya doirasida o'ziga xos kognitiv, madaniy va semantik jihatlari bilan alohida ilmiy qiziqish uyg'otgan konseptlardan biri sifatida qaraladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot davomida ingliz tilidagi "rain" konseptining frazeologiya va paremiyologiya doirasidagi ifodalanish xususiyatlari aniqlandi. Avvalo, idioma va frazeologik birliklarning semantik hamda funksional jihatlari o'rganildi. Olimlar fikriga ko'ra, idioma tarkibidagi so'zlarning umumiy ma'nosi ularning alohida ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki metaforik asosda shakllangan yangi mazmunni hosil qiladi [14; 15]. Bu nuqtayi nazar tilshunoslikda keng qabul qilingan bo'lib, ayrim tadqiqotchilar idiomani frazeologik birliklar turkumiga kiritadi, boshqalar esa ularni mustaqil hodisa sifatida farqlaydilar [10; 11].

Natijalardan ko'rinadiki, ingliz tilida "rain" leksemasi ishtirokidagi idiomalar ko'pincha kuchli obrazlilik va emotsional bo'yoqdorlik kasb etadi. Masalan, **"it's bucketing (down)"**, **"it's raining buckets"**, **"the heavens opened"** kabi iboralarda yomg'ir intensivligi chelakdan suv quyilishiga yoki osmonning ochilib ketishiga qiyoslanadi [17,

18]. Eng mashhur idiomatik ifoda esa “to rain cats and dogs” bo‘lib, u ham kuchli yomg‘irni ifodalashda qo‘llanadi. Ushbu ibora turli deformatsiyalarga uchrab, “kittens and puppies”, “wolves and tigers”, “elephants and giraffes” kabi variantlarida hazil yoki badiiy uslubiylilik kasb etgan [19, 23].

Shuningdek, “rain” konsepti vaqtinchalik to‘xtatish yoki rad etish ma’nosini anglatuvchi **“to take a rain check”** iborasida ham ifodalangan bo‘lib, uning sport tadbirlariga oid dastlabki qo‘llanishi kundalik nutqqa ko‘chib, metaforik kengayishga uchragan [24]. Shunga o‘xshash salbiy semantikani bildiruvchi **“to rain on somebody’s parade”** iborasi rejalarga xalaqit berish yoki kimningdir xursandchiligiga soya solish mazmunida ishlatiladi [25]. Qarama-qarshi semantikaga ega **“come rain or shine”** iborasi esa qat’iyat va barqarorlikni ifodalaydi [17]. Neytral konnotatsiyadagi “for a rainy day” iborasi esa “qiyin vaqt uchun zahira” mazmunini beradi va boshqa madaniyatlardagi ekvivalentlari bilan uyg‘unlik kasb etadi [28, 29].

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida “rain” konsepti ko‘proq salbiy assotsiatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib noqulaylik, muvaffaqiyatsizlik, rejalarning buzilishi, qiyinchiliklar va og‘ir davrlarni anglatadi. Bunga **“to rain on somebody’s parade”**, **“into each life some rain must fall”**, **“it never rains but it pours”** kabi birliklar dalil bo‘ladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda bu konsept ijobiy yoki neytral talqinda ham uchraydi: **“as right as rain”** (sog‘lom, o‘zini yaxshi his qilmoq), **“after rain comes fair weather”** (qiyinchiliklardan keyin yengillik keladi).

Paremiologik materiallar tahlili shuni ko‘rsatdiki, “rain” konsepti xalq donishmandligida ham keng o‘rin egallagan. **“Into each life some rain must fall”**, **“After rain comes fair weather”**, **“When it rains, it pours”** kabi maqollarda yomg‘ir hayotiy sinovlar, qiyinchiliklar va ularning ketidan keluvchi yengilliklarning ramzi sifatida ishlatiladi [31; 32]. Shu bilan birga, xalqning ko‘p asrlik kuzatuv tajribasi asosida shakllangan ob-havoga oid maqollarda yomg‘irning yaqinlashishi alomatlari tasvirlangan. **“If bees stay at home, rain will soon come”**, “Asalarilar uyasidan chiqmasa, yomg‘ir yaqinlashgan bo‘ladi.” **“If birds fly low, then rain we shall know”**, “Qushlar pastlab uchsa, yomg‘ir yog‘ishi aniq.” **“When cows are lying on the ground, the rain shall soon be coming down”** “Sigirlar yerga yotib olsa, yomg‘ir tez orada yog‘adi.” kabi maqollar tabiat bilan bevosita aloqadorlik va ekologik idrokni namoyon etadi.

XULOSA

Shunday qilib, frazeologik va paremiologik fondlar til egalarining milliy dunyo tasavvurini hamda olamni idrok etish xususiyatlarini eng yaqqol aks ettiruvchi vositalardan hisoblanadi [8]. Ingliz tilidagi lingvistik manzara “rain” (“yomg‘ir”)konseptini o‘z ichiga olgan frazeologizmlar va paremiya (maqol va matallar) bilan boy bo‘lib, bu mazkur konseptning ahamiyati va dolzarbligini ko‘rsatadi. Alohida ta’kidlash joizki, kuchli yomg‘ir hodisasini ifodalovchi til birliklari orqali konseptning aniq verbalizatsiyasi yuzaga chiqadi. Frazeologik birliklar, maqol va matallarni tahlil qilish asosida ingliz lingokulturasida “rain” konseptiga xos bo‘lgan kognitiv belgilar ajratib ko‘rsatildi. Asosan, yomg‘ir yomon ob-havo holati sifatida tasvirlanib, tadbirlarning bekor bo‘lishiga, inson rejalari buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin, hayotdagi qiyin davrlar, noxush hodisalar timsoli sifatida qabul qilinadi. Bu kabi hodisalar kutilmaganda ro‘y berishi, tezda tugashi, biroq istalgan odam hayotida bir marotaba bo‘lsa ham yuz berishi mumkin. Biroq har qanday yomg‘irdan keyin albatta ob-havo ochiladi, ya’ni yaxshilik keladi. Xulosa qilib

aytganda, ingliz tilidagi lingvistik manzarada “rain” konsepti salbiy konnotatsiyada, ya’ni salbiy mazmunda aks etishi ustunlik qiladi.

Yana shuni ta’kidlash joizki, ingliz lingvokulturasida “rain” konsepti ko’proq salbiy-emotsional rangda namoyon bo’lsa-da, ayrim hollarda ijobiy va neytral semantik yuklama kasb etishi mumkin. Shu bilan birga, frazeologik birliklar va paremiyalar nafaqat meteorologik hodisani ifodalash, balki inson hayoti, qiyinchiliklar, qat’iyat va madaniy qadriyatlarni ramziy tarzda ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Astafurova, T. N., & Plaxova, O. A. (2013). Ertak diskursida sehr lingvosemiotikasi. Volgograd davlat universiteti axborotnomasi. 2-seriya: Tilshunoslik, (3), 119–127.
2. Fyodorova, K. L. (2013). Rus tilidagi meteoronom komponentli frazeologizmlarning tuzilmaviy modellari. Chelyabinsk davlat universiteti axborotnomasi, (35), 123–126.
3. Vasiliev, V. P. (2012). Dialektlarda “yomg’ir” meteoronimi obrazli-nutqiy tizimi tarkibida. Novosibirsk davlat universiteti axborotnomasi. Tarix va filologiya seriyasi, 11(9), 186–191.
4. Vasiliev, V. P. (2014). Atmosfera hodisalari haqidagi dialektlarda meteoronimlarning obrazli ifodasi. Ilmiy dialog, (12), 58–72.
5. Popova, T. A. (2016). Ingliz lingvokulturasida doirasida “RAIN” (“yomg’ir”) konseptining kognitiv xususiyatlari (leksik-semantik tahlil asosida). Samarqand davlat universiteti axborotnomasi. Tilshunoslik seriyasi, (3). (nashrda).
6. Kajanova, Z. N., & Ershova, N. B. (2008). Frazeologik birliklar orqali dunyoni konseptualizatsiyalash va kategoriyalashtirishning o’ziga xos jihatlari. Zamonaviy fan va ta’lim almanaxi, (8-2), 75–77.
7. Ter-Minasova, S. G. (2004). Til va madaniyatlararo kommunikatsiya. Moskva: Moskva davlat universiteti.
8. Gudkov, D. B. (2003). Madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi va amaliyoti. Moskva: Gnozis.
9. Kosycheva, M. A. (2013). Ingliz lingvokulturasida doirasida “CHILD” konsepti va uning verbal ifoda vositalari (Nomzodlik dissertatsiyasi). Samarqand.
10. Savitskiy, V. M. (2006). Idiomatikaning umumiy nazariyasi asoslari. Moskva: Gnozis.
11. Smirnitskiy, A. I. (1998). Ingliz tili leksikologiyasi. Moskva: Moskva davlat universiteti.
12. Gvishiani, N. (2000). Zamonaviy ingliz leksikologiyasi: amaliy lug’at. Moskva: Moskva davlat universiteti.
13. Bell, S., & Bobrow, S. (1973). Idiomatik ifodalarni anglab olish haqida. Memory & Cognition, 1(3), 343–346.
14. Seidl, J., & McMordie, W. (1978). Inglizcha idiomalar va ularni ishlatish. Oxford: Oxford University Press.
15. Palmer, F. R. (1977). Semantika. Yangi ko’rinish. Cambridge: Cambridge University Press.
16. Dobrovolskiy, D. O., & Karaulov, Yu. N. (1993). Til shaxsining tezaurusida idiomatik birliklar. Tilshunoslik masalalari, (2), 5–15.

17. Hornby, A. S. (2005). Oxford Advanced Learner's Dictionary. Oxford: Oxford University Press.
18. British National Corpus. (n.d.). Retrieved from <http://corpus.byu.edu/bnc>
19. Izotova, A. A. (2001). Ommaviy kommunikatsiya uslubida "barqaror metaforalar"ning deformatsiyasi. *Til, ong, kommunikatsiya*, (17), 34–37.
20. Izotova, A. A. (1999). Ingliz badiiy adabiyotida "barqaror metaforalar"ni o'ynash. *Til, ong, kommunikatsiya*, (10), 63–76.
21. Chinenova, L. A. (2009). Ingliz tilidagi frazeologiya va nutqda ularning qo'llanishi. Moskva: URSS.
22. Konstantinova, A. A. (2009). Zamonaviy ingliz-amerika matbuotida maqollar va matallar: an'anaviy paremiyalarning mualliflik interpretatsiyasi. *Tomsk davlat universiteti axborotnomasi*, (322), 22–25.
23. Axmanova, O. S. (1966). Tilshunoslik atamalari lug'ati. Moskva: Sovet ensiklopediyasi.
24. Summers, D. (2007). The Longman Dictionary of Contemporary English. London: Longman.
25. Cambridge Online Dictionary. (n.d.). Retrieved from <https://dictionary.cambridge.org>
26. Oxford English Dictionary. (n.d.). Retrieved from <https://www.oed.com>
27. The Free Dictionary of Idioms and Phrases. (n.d.). Retrieved from <https://idioms.thefreedictionary.com>
28. Summers, D. (2005). The Longman Dictionary of English Language and Culture (3rd ed.). London: Longman.
29. The Collins English Dictionary. (2000). Glasgow: Harper Collins.
30. Kunin, A. V. (1972). Zamonaviy ingliz tili frazeologiyasi. Moskva: Xalqaro aloqalar.
31. Dmitrieva, O. A. (1997). Maqollar va aforizmlarning madaniy-til xususiyatlari (fransuz va rus tillari materiallari asosida) (Nomzodlik dissertatsiyasi). Volgograd.
32. Krasavskiy, N. A., & Kirnosov, I. M. (1996). Nemis tilidagi maqollar va matallarda ayol obrazi. In *Til shaxsi: madaniy konseptlar* (pp. 48–54). Volgograd: Peremena.
33. Spears, R. A. (1991). American Idioms Dictionary. Illinois: National Textbook Company.